

DARSLIK MATNLARIDA DIALEKTIZMLARNING QO'LLANILISHI

Bobosherova Madina Tolibjon qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda darslik matnlarida dialektizmlarning qo'llanishi, ularning o'quvchilarda tilga qiziqish uyg'otishdagi roli va bu jarayonda ehtiyotkorlik zarurati tahlil qilinadi. Sheva materiallarini yig'ish, tasniflash va tahlil qilish orqali nafaqat til boyligi, balki xalqning madaniy-ma'naviy hayoti ham aks ettiriladi. Tezisda XX-XXI asrlardagi dialektal matnlarni yozib olish tendensiyalari, shuningdek, ularning darsliklardagi qo'llanilish shakllari – xalq og'zaki ijodi, badiiy matnlar va dialogik nutq kontekstlarida keltirilishi ko'rsatib o'tiladi. Dialektizmlarni kontekstda izohlab, adabiy til bilan taqqoslab berish darslik tuzishda muhim metodik yondashuv sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: dialektizm, darslik, sheva, dialektal matn, adabiy til, xalq og'zaki ijodi, til madaniyati, o'quvchi nutqi, metodik yondashuv, lingvistik me'yorlar.

Hozirgi kunda sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektologik matnlar asosida sheva materiallarini yig'ish, jamlash, tavsiflash-u tasniflash bo'lishi maqsadga muvofiq. Dialektologik matnlar va so'zliklarda nafaqat sheva so'zlari, shular bilan birga xalq ongi-yu dili va tilidagi ma'naviyat, ma'rifat, madaniyatga tegishli bilim, malaka hamda tajribalar o'z ifodasini topgan.

Dialektizmlar o'quvchilarda tilga nisbatan qiziqish uyg'otadi, ammo adabiy til me'yorlari bilan chalkashmasligi uchun darsliklarda muvozanat saqlanishi lozim. Ulardan: tanlab, maqsadga muvofiq foydalanish; tilshunoslik darslarida maxsus mavzu sifatida o'rganish; tarjimai hol, xalq og'zaki ijodi, mahalliy koloriti kuchli bo'lgan matnlarda ehtiyotkorlik bilan berish afzal.

Maktab darsliklarida dialektizmlar asosan quyidagi kontekstlarda qo'llaniladi: xalq og'zaki ijodi: ertaklar, dostonlar, maqollar orqali. Badiiy matnlar: turli yozuvchilarning dialektal unsurlardan foydalangan hikoya yoki roman parchalari. Dialogik nutq: hayotiy muloqotlarda dialektal ohang tabiiy aks etadi.

Adabiyot darsliklarida xalq hayotini, urf-odatlarini, mintaqaviy koloritni aks ettirish maqsadida dialekt so'zlardan foydalaniladi. Ayniqsa, yozuvchilar obraz yaratishda, qahramonning shaxsiy xususiyatlarini ochib berishda dialektizmlardan unumli foydalanadilar. Bu orqali o'quvchi matnga ishonadi, obrazga yaqinlashadi. Misol: Abdulla Qodiriy asarlarida toshkentcha sheva so'zlari, O'tkir Hoshimovda esa toshkentcha va farg'onacha iboralar tez-tez uchraydi. Bu usul xalq hayotini tabiiy ifodalashga xizmat qiladi.

Quyida darsliklarda keltirilgan matnlardagi dialektal so'zlarni ko'rib o'tamiz. 7-sinf darsligi, Qamchibek Kenjaning "Baliq ovi" asaridan parcha:

"Men birinchi sinfga qatnardim. Akam yettinchida o'qirdi. Otam xo'jalik mudiri edi. Uyimizga tez-tez mehmon kelib turardi. Har safar har xil kishilar: oriq, semiz, novcha, pakana, mo'ylovli, mo'ylovsiz... Ularning ko'pini tanimasam-da, o'zimda yo'q sevinib ketardim. Chunki mehmon kelsa, akam ikkimiz, albatta, baliq oviga jo'nardik. Qishlog'imizning kunbotar tomonida to'qay bo'lib, hali zovurlar qazilmagan, zaxob suvlar

quritilmagandi. Katta-kichik buloqlarda, ayniqsa, Dimariqda (dimlanib oqqani uchun shunday deyilardi) baliq mo'l bo'lar edi...

Men akamning baliq tutishini ko'rishga ishqiboz edim. U baliq ovlashga usta edi. To'rdayam, sanchiqdayam bir zumda bir paqirini ilintirardi".

Ushbu matnda "oriq-ozg'in", "pakana-kalta, past bo'yli", "paqir-chelak" degan ma'nolarni bildirib, leksik-semantik dialektizmlarga mansubdir.

8-sinf darsligidagi Shukur Xolmirzayevning "Omon ovchining o'limi" asaridan parcha:

"Omon o'rnidan turib chetga chiqdi. So'ng xotirjam kavshanayotgan hayvonga bir pas qarab turdi-da, pichanga sanchib qo'yilgan panshaxani olib, sigirning beliga ikki tushirdi. Jonivor og'ir mo'rab yuborib, yotib qoldi: dir-dir titraydi.

Voy, inakni o'ldirdingiz-e, beshafqat! – deb yig'lab yubordi xotini.

Qishloqda Omon sira kutmagan voqea sodir bo'la boshladi: qo'shnilar birin-ketin janubga ko'chib keta berishdi: cho'lquvar bo'lib... Omon ularni gangib kuzatar, bu qishloqni, shimoldagi Olatog'ni va unda bor archazorlar-u hayvon-parrandalarni tashlab cho'lga – pashsha qaynagan qiziriq cho'lga tushib ketayotganlarini aqliga sig'dirolmasdi..."

Yuqorida keltirilgan matnda "panshaxa-asbob", "inak-sigir", "gangib-chalg'ib" kabi leksik-semantik dialektizmlar keltirilgan.

9-sinf darsligidagi Sharof Boshbekovning "Temir xotin" komediyasidan parcha:

"Qo'chqor: – Bilasan, kennoying ketib qoldi! Shu desang, xotinsiz uy uymas-da. Na kiyinishingda tartib bor, na issiq-sovug'ingda tayin bor, qidirgan narsang topilmaydi, padariga la'nat! Xullas, qiyin-da. Shu, Alomatxon ro'zg'orga sal munday... nima deydi... qarashib tursa-a, devdim-da, ukam."

"Kennoying-kelinoying", "munday-bunday", "devdim-da-degan edim-da" kabi dialektizmlar ushbu matnda keltirilgan bo'lib, fonetik dialektizmlarga mansubdir.

Darslik matnlarida dialektizmlarning qo'llanilishi – o'quvchilarga tilning tabiiy, rang-barang va jonli jihatlarini ko'rsatishda muhim vositadir. Ammo bu jarayonda ehtiyotkorlik va lingvistik mezonlarga amal qilish muhim: dialekt so'zlar kontekstda izohlanishi lozim; ular adabiy til bilan taqqoslanishi kerak; satr osti lug'atlar darslikning ajralmas qismiga aylanishi zarur. Shu asosda darslik matnlariga dialektizmlarni kiritish ilmiy va didaktik asosda olib borilishi kerak bo'lgan muhim jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Enazarov T. Dialektologiya metodologiyasi / Monografiya. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2019. –B. 279.

2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Yangi nashr, 2022. – B. 191.

3. Olimov S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. –B. 279.

4. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshibekov J. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2019. – B. 273.